

## ABDULLAXON II HUKMRONLIGI DAVRIDA BUXORO XONLIGI

**Azimova Munisa Azamovna**  
**Osiyo Xalqaro Universiteti**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoro xonligida hukmronlik qilgan Abdullaxon II davridagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy jarayonlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda Abdullaxon II ning markazlashgan davlat barpo etish yo‘lidagi sa’y-harakatlari, ichki siyosatdagi islohotlari va harbiy yurishlari yoritiladi. Shuningdek, uning tashqi siyosati, xususan, qo‘shni davlatlar bilan olib borgan diplomatik va harbiy munosabatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Maqolada Abdullaxon II hukmronligi davrida Buxoro xonligining siyosiy barqarorlashuvi hamda iqtisodiy va madaniy taraqqiyotidagi o‘rni tarixiy manbalar asosida ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Abdullaxon II, Buxoro xonligi, Shayboniylar davlati, markazlashgan davlat, XVI asr, ichki siyosat, tashqi siyosat, harbiy yurishlar, diplomatik aloqalar, tarixiy manbalar.

*Abdullaxon II (Abdullaxon ibn Iskandarxon), XVI asrning taniqli hukmdorlaridan biri, Buxoro xonligini boshqargan shayboniylar sulolasining vakili edi. U 1533–1540 yillarda hukmronlik qilgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Abdullaxon II 1533-yilda tug‘ilgan. Abdullaxon II (1533–1598) Shayboniylar sulolasiga mansub edi. Shayboniylar sulolasi Chingizxonning avlodidan bo‘lib, ular Movarounnahr va Xuroson hududlarida XVI asr davomida hukmronlik qilishgan. Abdullaxon II Shayboniylar ichida eng nufuzli va muvaffaqiyatli hukmdorlardan biri hisoblanadi. U o‘z faoliyati davomida Buxoro xonligini kuchli markazlashgan davlatga aylantirdi va ko‘plab madaniy hamda diniy islohotlarni amalga oshirdi. Uning davrida Buxoro xonligi qudrat cho‘qqisiga chiqdi. Shu bilan birga, u Movarounnahrda yagona hukmronlikni o‘rnatib, o‘zining siyosiy qobiliyati bilan mashhur bo‘lgan. Abdullaxon II (1533–1598) bolalik yillari haqida tarixiy manbalarda to‘liq va batafsil ma’lumotlar ko‘p uchramaydi. U Shayboniylar sulolasining taniqli vakili sifatida Iskandarxonning o‘g‘li edi. Abdullaxon yoshligidan siyosat va harbiy ishlar bilan tanishgan, chunki u zamonlarda shohzodalar kichik yoshidan davlat boshqaruvi va jangovar san’atni o‘rganishga jalb qilingan. Uning bolalik yillari Shayboniylar sulolasi ichidagi siyosiy kurashlar va Movarounnahrning murakkab siyosiy holati bilan kechgan. Abdullaxonning tarbiyasida unga atrofidagi olimlar va diniy ulamolar katta ta’sir ko‘rsatgan. Keyinchalik u o‘zining donoligi, strategik fikrlashi va bilimdonligi bilan*

*o'zini namoyon etgan. Uning yoshligidan boshlab qudratli hukmdor bo'lishiga tayyorlanganligi uning keyingi faoliyatida, ayniqsa, Movarounnahrni birlashtirishda va Buxoro xonligini markazlashgan davlatga aylantirishda namoyon bo'lgan. Agar bolalik yillariga doir ma'lum bir voqeani qidirayotgan bo'lsangiz, aniqlashtirish kiritishingiz mumkin! Abdullaxon II ning ta'lim olishi haqida aniq va batafsil tarixiy ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Ammo o'sha davr an'analari ko'ra, shayboniy shahzodalar yoshliklaridan diniy va dunyoviy ilmlarni o'rganishga katta e'tibor qaratishgan. Movarounnahr, xususan, Buxoro, Samarqand va boshqa yirik shaharlardagi madrasalar o'z davrining bilim maskanlari sifatida xizmat qilgan. Abdullaxonning bolalik va yoshlik yillari Shayboniylar sulolasi ichidagi siyosiy kurashlar bilan kechgan bo'lsa-da, u juda yaxshi ma'lumot olgan. Abdullaxon II saroyiga xizmatga qabul qilingan Qulbobo Ko'kaldoshning tavsiyasi bilan Hofiz Tanish Buxoriy va xonning shaxsiy voqeanavisi (tarixchisi) qilib tayinlangan (1570-yildan). U umrining oxirigacha shu lavozimda xizmat qilgan. Hofiz Tanish Buxoriy o'z davrining yetuk shoiri bo'lib, u „Mavloni Naxliy“ taxallusi bilan she'rlar yozgan. 1560-yilda u Iskandarxon taxtga o'tirganida unga qasida bag'ishlagan. Uning she'rlari ko'plab tazkiralarda va bayozlarda uchraydi. Hofiz Tanish Buxoriy ibn Mir Muhammad Buxoriy, Mavloni Naxliy (taxminan 1540 — Buxoro — 1589) — tarixchi olim va shoir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, „Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari“ degan da'vatkor g'oya hayotimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Biz ayni shu asosda xalqimiz hayotini tubdan yaxshilash, inson huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolatni ta'minlash, innovatsion taraqqiyot borasida muhim qadamlarni qo'yamoqdamiz” . Innovatsion taraqqiyot borasida muhim qadamlarni qo'yayotgan yangi O'zbekistonning har bir fuqarosi ona yurtimizning xolisona va mafkuraviy qarashlardan xoli tarixini innovatsion yondashuvlar asosida yaratilgan ilmiy tadqiqot ishlaridan o'rgansalar hamda tarix ta'limida ham ana shunday tadqiqotlar natijalaridan unumli foydalansalar ezgu niyatlarimiz va buyuk maqsadlarimiz ro'yobi – “Uchinchi Renessans”ning mustahkam poydevorini bunyod etishga munosib hissa qo'shgan Sh.M.Mirziyoyev Mustaqillik-ezgu niyatlarimiz, buyuk maqsadlarimiz ro'yobi yo'lida qudrat manbai hisoblanadi Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlar ilmiy ish mavzusining g'oyat dolzarbligidan dalolat beradi. Hofiz Tanish Buxoriy o'zining shoh kitobi — „Abdullanoma“ („Sharafnomai shohiy“) asari bilan tanilgan. Asar shayboniylardan Abdullaxon II ga bag'ishlangan bo'lib, 1584—88 yillarda Buxoroda fors tilida yozilgan. Muallifning rejasiga ko'ra, asar muqaddima, 2 qism (maqola) va xotimadan iborat bo'lishi mo'ljallangan. Buxoro xonligi tarixshunosligi bo'yicha*

Hofiz Tanish Buxoriyning Abdullanoma, Mir Muhammad Amini Buhari, Ubaydullaname, Abduraxmon Tole, История Абулфейзхана, Mirza Abdal Azim Sami, Tarix salatini mangitiyai Buhara, O‘zbekistonning yangi tarixi. 1 kitob, Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida, O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti, 1 qism kitoblari va mustaqillik davrida olib borilgan ilmiy tadqiqot asarlari hisoblanadi. : Kurs ishining maqsadi Abdullaxon II (to‘liq ismi: Abdulla ibn Iskandarxon ibn Jonibek sulton ibn Xoja Muhammad ibn Abulxayrxon) (1534; Miyonkol, Ofarinkent — 1598.8.2, Samarqand, Buxoro yaqinidagi Bahouddin majmuasiga dafn etilgan) — o‘zbek davlatchiligi tizimidagi Buxoro xonligining shayboniylar sulolasidan chiqqan eng yirik hukmdori (1583—1598), davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan, ma’rifat, madaniyat homiysi, uning siyosiy faoliyati va ilmiy faoliyatini yoritib berishdan iborat. Abdullaxon II. ning kelib chiqishi, Shayboniylar bilan qarindoshlik an’analari va Movarounnahr o‘zbeklari bilan aloqalari, o‘limi Abdullaxon II ning oilasi: onasi, xotinlari va farzandlar Abdullaxon II davrida shaharsozlik, ilm-fan va adabiyotga katta etibor berganligi Abdullaxon II - davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan, ma’rifat, madaniyat homiysi Abdullaxon II (to‘liq ismi: Abdulla ibn Iskandarxon ibn Jonibek sulton ibn Xoja Muhammad ibn Abulxayrxon) (1534; Miyonkol, Ofarinkent qishlog‘i — 1598.8.2, Samarqand, Buxoro yaqinidagi Bahouddin majmuasiga dafn etilgan) — o‘zbek davlatchiligi tizimidagi Buxoro xonligining Shayboniylar sulolasidan chiqqan eng yirik hukmdori (1583—98), davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan, ma’rifat, madaniyat homiysi. Bobosi Jonibek sulton (vafoti 1528/29) Karmana va Miyonkol hokimi (1512/13 yildan bo‘lgan. Otasi Iskandar sulton o‘g‘li tug‘ilgan paytda Ofarinkentni, keyichalik, aftidan aka-ukalaridan biri vafot etgach, Karmanani boshqargan. Abdullaxon II Shayboniyxon vafotidan keyin parchalanib ketgan mamlakat hududini qayta birlashtirish, markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlash uchun yoshlik chog‘idan qattiq kurash olib borgan. Toshkent hokimi Navro‘z Ahmadxon! (Baroqxon) bilan Koson yonida (1548),! Mo‘g‘uliston xoni Abdurrashidxon va shayboniylardan Do‘stum sultonlar qo‘shiniga qarshi Forob yonida (1554)1 jang qilgan. Yosh Abdulla sulton o‘zining hukmdor sifatidagi butun g‘ayrat-shijoatini 1551 yil Karmanada namoyish etgan; viloyatga Toshkentdan! Navro‘z Ahmadxon va Samarqanddan Abdullatifxon hujum qilganlar, Iskandar sulton Amudaryo ortiga qochgan. Abdulla sulton otasi vazifasini o‘z zimmasiga olib bu hujumni muvaffaqiyatli qaytargan. Keyingi yillarda] (1552—56) o‘z mulkini g‘arbga — Buxoro tomonga va janubiy.-sharq — Qarshi va Shahrissabz tomonga kengaytirishga intilgan. Bu sa’y-harakat dastlab muvaffaqiyatsiz chiqqan, hatto 1556 yil u ota meros mulkini tashlab Maymanaga qochishga majbur bo‘lgan. U

amakisi, Balx hokimi Pirmuhammaddan harbiy yordam olib va piri Jo`ybor xojalaridan Xoja Muhammad Islom ko`magida Navro`z Ahmadxon, keyinchalik uning o`g`illari Darveshxon va Bobo sultonlarga qarshi uzoq muddat kurash olib borgan. Navro`z Ahmadxon vafot etgach (1556), darhol Karmana va Shahrisabzda o`z hukmronligini tiklaydi, 1557 yil mayda Buxoroni qo`lga kiritadi va uni o`z poytaxtiga aylantiradi. 1561 yil otasini davlat boshlig`i—xon deb e`lon qilib, uning nomidan mamlakatni o`zi boshqara boshlaydi. Markaziy xokimiyatga bo`ysunishdan bosh tortgan shayboniy sultonlar bilan kurashib Balx (1574), Samarqand (1578), Toshkent, Sayram, Turkiston (1583) va Farg`ona (1583) ni egallaydi. 1582 yil Dashtga yurish qilib Ulug`tog`ta qadar borgan. 1583 yil otasi Iskandarxon vafot etgach, mamlakatni o`z nomidan boshqara boshlaydi. Markaziy hokimiyatga qarshi ko`tarilgan Maymana va Garchiston (1583), shuningdek Badaxshon (1585) dagi g`alayon, tartibsizliklarni bostirgan. Xorazmga ikki marta yurish (1594 va 1596) qilib, u yerda markaziy hokimiyat hukmronligi qayta tiklagan. Abdullaxon II mamlakat hududi yaxlitligini tiklash yo`lida qo`shni xorijiy davlatlar bilan ham kurash olib borgan. Masalan, Turkiya Movarounnahrda o`z ta`sirini kuchaytirish niyatida Abdullaxon II ga qarshi kurashda Bobo sultonga yordam bergan. Bobo sulton turk askarlari yordamida Nasaf yonida Abdullaxon II ga qarshi jang qilgan. Abdullaxon II safaviylar bilan Xuroson, Gilon uchun kurashib ularni o`z tasarrufiga kiritgan. Sharqiy Turkistonga qilingan yurishda Qashqar va Yorkend viloyatlarini olgan. Boburiylar ham Badaxshon, Shim. Afg`oniston va Xuroson uchun Abdullaxon II ga qarshi kurashganlar. Abdullaxon II bunga qarshi Sind (1583), Kashmir (1586)ni egallab, davlatning janubiy chegaralarini mustahkamlagan. Abdullaxon II davrida mamlakat hududi Qashqardan Orol va Kaspiy dengizlari sohillarigacha, Turkiston va Sayramdan Xurosonning sharqiy qismigacha bo`lgan yerlardan iborat edi. Abdullaxon II hayotining so`nggi yillarida o`g`li Abdulmo`min (q. Abdulmo`minxon) bilan chiqishmay qolgan. Abdulmo`min 1582 yil kuzidan Balxni otasi nomidan boshqarayotgan edi. Iskandarxon davrida Abdullaxon II haqiqiy, amaldagi hukmdor bo`lgani kabi, Abdulmo`min ham keksaygan otasiga nisbatan shunday mavqeni egallamoqchi bo`lgan. Faqat ulamolarning aralashuvi tufayligina ota-bola o`rtasida ochiq urush harakatlari boshlanmagan va Abdulmo`min otasiga bo`yin egishga majbur bo`lgan. Ular o`rtasidagi munosabatlar keskinlashganidan xabar topgan qozoq xonlaridan Tavakkalxon Toshkent viloyati va Toshkent—Samarqand oralig`idagi yerlarga bostirib kirib, unga qarshi yuborilgan qo`shinni yenggan. Unga qarshi safarga otlangan Abdullaxon II Samarqandga yetganda vafot etgan. Tashqi siyosati. Abdullaxon II faol tashqi siyosat olib borgan. Bu davrda shayboniylar Eron, Hindiston, Turkiya, Xitoy, Rossiya va b. mamlakatlar bilan keng diplomatik, iqtisodiy,

savdo aloqalari olib borganlar. Masalan, Abdullaxon II elchilari 1583 yil Moskvadan o`q dori, ov qushlari, mato olib kelganlar. Bunday elchilik 1589, 1595 yil larda ham qaytarilgan. Abdullaxon II ning mamlakat ichki siyosatidagi, davlat boshqaruv tizimini mustahkamlash, ayniqsa pul islohoti o`tkazish yo`lidagi faoliyati natijalari keyingi davrlarda ham saqlanib qolgan. U ko`plab turli inshootlar qurdirgan. Hozirgacha xalq orasida u yoki bu inshoot qurilishi Amir Temur yoki Abdullaxon II ga nisbat beriladi. Abdullaxon II davrida madaniy hayot Abdullaxon II davrida Buxoro yaqinidagi Sumiton (Jo`ybor) mavzesida Jo`ybor xojalaridan Abu Bakr Sa`d (970/971 yil vafot etgan) mozori atrofiga Madrasa, masjid, xonaqoh va chorbog` (1558—66), Buxoroda Madrasa (q. Abdullaxon madrasasi), hammom, Govkashon, Fatxulla qushbegi, Mirakan, Xoja Muhammad Porso, yangi Chorsu (1569—70), tim (q. Abdullaxon timi), Karmana yaqinida Zarafshon daryosi ustiga ko`prik (1582) va b. qurildi. Bunday inshootlar va karvonsaroylar Samarqand, Toshkent, Balx va b. shaharlarda ham qurilgan (masalan, Abdullaxon II ning nufuzli amiri Qulbobo Ko`kaldosh sharafiga Toshkentda qurilgan Ko`kaldosh madrasasi va b.). Karvon yo`llarida sardobalar, rabotlar, kanallar, suv omborlari (q. Abdullaxon bandi), ko`priklar (masalan. Surxondaryoda xalq orasida Iskandar ko`prigi nomi bilan mashhur bo`lgan G`ishtko`prik va b.), chorbog`lar bunyod etilgan. Abdullaxon II davrida shaharsozlik, ilm-fan va adabiyot Abdullaxon II davrida mamlakatda shaharsozlik, adabiyot, ilm-fan taraqqiy etgan. Buxoro madaniyat, ilm-fan markaziga aylangan Hofiz Tanish Buxoriyning Abdullanoma («Sharafnomayi shohiy») (1584—89), Amin Ahmad Roziyning «Haft iqlim» (1583), Mutribiyning dunyo xaritasi ilova qilingan «Tazkiroti shuaro» (taxminan. 1593—95) va b. ilmiy asarlar yaratildi. Buxoroda mashhur Abdullaxon kutubxonasi tashkil qilingan. Unda mashhur xattotlar Mir Ali Hiraviy, Ahmad Husayniylar va b. kitob ko`chirish bilan mashg`ul bo`lishgan. Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkiri ahbob» asari Abdullaxon II ga bag`ishlangan. Bu davrda shoir, adib va ilohiyotchi olimlardan Mushfiqiy, Nizom Muammoiy, Muhammad Darvish oxund, qozi Poyonda Zominiy, mulla Amir, Muhammad Alti Zohid, tabiblardan mavlono Abdulhakim va b. yashab ijod etgan. Abdullaxon II ning o`zi ham iste`dodli shoir bo`lib, «Xon» taxallusi bilan o`zbek va fors tillarida she`rlar yozgan. Mamlakatda (Buxoro, Samarqand, Toshkent, Balx va b.da) hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlangan. Hunarmandlar turli ipak matolar, uy-ro`zg`or, zargarlik buyumlari, qurol-yarog`lar va b. tayyorlardilar. Movarounnahr ustalari tayyorlagan buyumlar ichki va tashqi bozorda juda xaridorgir bo`lgan. Harbiy san`at taraqqiy etgan. Qo`shin tarkibini nayza, qilich, manjaniq, naftandoz va shotular bilan qurollangan otliq va piyoda qismlar tashkil qilgan. 16-asr ikkinchi yarmidan qo`shin Turkiya va Rossiyadan

keltirilgan piltalarga va zambaraklar bilan qurollana boshlagan (yana q. Buxoro xonligi) Buxoro xonligi (amirligi) — o'zbek davlatchiligi tizimidagi xonliklardan biri (16—20-asr boshlari). 1533 yilgacha mamlakat markazi Samarqand bo'lgan. Ubaydullaxon davrida (1533—39) poytaxt Buxoroga ko'chirilgan va xonlik Buxoro xonligi nomini olgan. 1510 yil Marv yonida Shayboniyxon shoh Ismoil I Safaviy qo'shinlaridan yengilib halok bo'lgandan keyin Movarounnaxr temuriylardan Zahiriddin Muhammad Bobur qo'lga o'tadi. Lekin, ko'p o'tmay shayboniylar yana Movarounnahrni egallaganlar. Shu vaqtdan boshlab Movarounnaxr butunlay shayboniylarga tobe bo'lgan. O'sha vaqtlarda xonlikka hozirgi O'zbekiston va Tojikistonning katta qismi, Balx va Badaxshon kirgan. Ubaydullaxon vafotidan keyin Buxoro xonligi mayda bo'laklarga Buxoroda Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizxon, Samarqandda esa Ko'chukchixonning o'g'li Abdullatifxon mustaqillik e'lon qilgan. Balx va Badaxshonda shayboniylardan Pirmuhammadxon mustaqil hukmronlik qilgan. Shu yillari shayboniy sultonlari va mahalliy mulqdorlarning hokimiyat uchun kurashi kuchaygan. Toshkent va Turkistonda Navro'z Ahmadxon (Baroqxon), Karmana va Miyonqolda Iskandarxon, Balxda Pirmuhammadxon va boshqa kichikkichik hukmdorlar mustaqil bo'lib olganlar. 1551—56 yillarda shayboniylar o'rtasidagi Movarounnaxr uchun kurashda Iskandarxonning o'g'li Abdullaxon g'olib chiqib, Buxoro xonligi da o'z hokimiyatini o'rnatgan. 1557 yildan boshlab Buxoro uzilkesil xonlik poytaxtiga aylangan. Iskandarxon (1563—83) va uning o'g'li Abdullaxon II davrida Buxoro xonligi ning siyosiy mavqei ortgan. Abdullaxon II Balx (1573), Samarqand (1578), Toshkent (1582), Farg'ona (1583), Badaxshon (1584), Ko'lob (1585), Xuroson (1588), Xorazm (1595—96) ustidan o'z hukmronligini o'rnatgan; markaziy davlat boshqaruv devonini mustahkamlagan. Shunday qilib 16-asr oxiriga kelib Buxoro xonligi markazlashgan ulkan davlatga aylangan. Sharqda Qashqar bilan chegaradosh bo'lgan, g'arbiy chekkasi Orol va Kaspiy dengizi sohillarigacha borib tutashgan. Xonlikning shim.dagi chegaralari Turkiston va Sayramgacha yetib, jan.da Xurosonning sharqiy qismini o'z ichiga olgan. Shayboniylar hukmronligi yillarida, ayniqsa Abdullaxon II zamonida Buxoro xonligi da dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlangan, madaniy hayot ancha yuksalgan. Juda kup sug'orish inshootlari: Abdullaxon bandi, Tuyatortar kanali, Oqchopsoy to'g'oni va suv ombori, Vaxshdan chiqarilgan ko'plab ariqdarning qurilishi dehqonchilikni rivojlantirdi. Bu vaqtlarda Buxoro xonligi da bug'doyning 10 xil turi, suli, qo'noq, jo'xori, mosh, no'xat, makkajo'xori, loviya, sholi, paxta, kunjut, beda, arpa, sabzavot va poliz ekinlari ekilgan, bog'dorchilik, chorvachilik va ipakchilik rivojlangan. Samarqand, Buxoro, Marg'ilon, Xo'jand, Andijon, Toshkent, Jizzax, O'ratepa, Shaxrisabz va boshqa yirik

shaharlarda hunarmandchilik taraqqiy qilgan. Samarqand qozi kalonining hujjatlaridan ma'lum bo'lishicha, 16-asrda Samarqandda hunarning 61 turi mavjud bo'lgan. Movarounnaholik kosiblar zo'r san'at bilan turlituman metall buyumlar, a bo'linib ketgan. ip va ipak matolar, a'lo navli qog'ozlar ishlab chiqarganlar. Buxoro shahri bir muncha kengaytirilgan, devor va harbiy istehkomlar qaytadan qurilgan. Shaharda madrasalar, xonaqoh va karvonsaroylar, yangi rastalar barpo qilingan. Shaharlar o'rtasidagi savdo yo'llarida tim (Abdullaxon timi), ko'chalar chorrahasi ustiga gumbaztoqlar, hammomlar, karvon yo'llarida sardobalar, karvonsaroylar, ko'priklar qurilgan. Shayboniylar zamonida Buxoro xonligi ning Hindiston, Turkiya, Rossiya bilan savdo va diplomatik munosabatlari rivojlangan. Tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, 1572—78 yillari Hindistonda Buxoro xonining elchilari, Buxoroda esa Hindiston podshohi Akbarntt elchilari bo'lgan. Abdullaxon davrida boshlangan ichki siyosiy nizolar natijasida 1598 yilda Abdullaxonning o'zi va shu yilda uning o'g'li Abdulmo'min o'ldirilgan. Taxtga Pirmuhammadxon II chiqqan. Ammo uning hukmronligi ham uzoqqa bormay, 1601 yil taxtdan ag'darilgan. Shu bilan qariyb 100 yil hukm surgan shayboniylar sulolasi barham topib, Movarounnaxrda Jo'jixon naslidan bo'lgan ashtarxonjlar (joniylar) sulolasi hukmronligi boshlangan. Ashtarxoniylar davrida xonlikda siyosiy nizo va beboshliklar deyarli to'xtamagan. Dastlab asli ashtarxonlik, Buxoroda qo'nim topgan shahzoda Jonibekning o'g'li Boqi Muhammad (1601—05), so'ngra uning ukasi Vali Muhammad (1605—11) taxtga o'tqazilgan. Imomqulixon davrida (1611—42) qozoq biylari va boshqa ko'chmanchilarning Buxoro xonligi yer lari ga talonchilik yurishlari kuchaygan. Chunonchi Imomqulixon 1612 yil Toshkentni egallab, o'g'li Iskandarni hokim etib tayinlaydi, ammo shaharda qo'zg'olon ko'tarilib Iskandar o'ddiriladi. Imomqulixon Toshkent aholisini shafqatsiz qirg'in qilib shaharni yana xonlikka qo'shib oladi. Uning davrida xonlik ancha mustahkamlanadi. Imomqulixon ko'r bo'lib qolgach, taxtni egallagan ukasi Nadr Muhammadxon (1642—45) ham shafqatsizligi va zolimligi bilan norozilik chiqaradi. Natijada muxolif kuchlar tazyiqi bilan taxtdan voz kechadi. Hokimiyat uning o'g'li Abdulaziz II (1645—81) qo'liga o'tadi. U markaziy hokimiyatni mustahkamlashga harakat qiladi, lekin tobora kuchayib borayotgan tarqqlikni bartaraf qilolmaydi. Bu vaqtda Eron shohi Abbos /Balxni egallaydi, keyinroq Balx Erondan qaytarib olingan. Abdulaziz II bilan uning ukasi Subhonqulixon o'rtasida hokimiyat uchun kurash boshlanadi. Ashtarxoniylar hukmronligi yillarida Xiva xoni Abulg'oziy Bahodirxon va undan keyin o'g'li Anushaxon Buxoro va Samarqand atrofiga tez-tez hujum qilib turgan. Taxtni egallab olgan Subhonqulixon (1681 — 1702) o'z raqiblariga qarshi shafqatsiz kurashgan. U

Balx va Xurosonga harbiy yurishlar qilgan. Uning o'g'li Ubaydullaxon (1702—11) hukmronligi davrida Balx, Termiz, Shahrisabz hokimlari mustaqil bo'lib olishga harakat qilganlar. Xon ularga qarshi harbiy yurishlar qilishga majbur bo'lgan. Samarqand va Hisorda bosh ko'targan qabilalarga qarshi qo'shin yuborgan. O'zaro beto'xtov urushlar, harbiy yurishlardan keyin xazina bo'shab, iqtisodiy ahvol mushkullashgan. 1708—09 yillarda o'tkazilgan pul islohoti natijasida pul qiymati to'rt marta tushib ketgan. Islohotdan zarar ko'rgan aholi g'alayon ko'targan, biroq qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostirilgan. Xonlikda siyosiy va iqtisodiy ahvolning yomonlashishi ichki ziddiyatlarni kuchaytirib yuboradi. Ayrim nufuzli amirlar uyushtirgan fitna natijasida Ubaydullaxon 1711 yil da o'ldiriladi. Taxtga marhum xonning ukasi Abulfayzxon (1711—47) nomigagina xon qilib o'tqaziladi. Hokimiyatdagi muhim lavozimlar nufuzli amirlar qo'liga o'tib qoladi. Markaziy hokimiyat zaiflashgach, 1711 yilda Balx, 1723 yilda Samarqand viloyati Buxoro xonligi dan ajralib chiqadi. 1720 yillarda Toshkent viloyatini qalmoqlar bosib oladi. Shu asnoda Xiva xoni Sherg'ozixon ham Buxoro xonligi ga da'vogar bo'ladi, ammo uning harakatlari samarasiz yakunlanadi. 1723 yilda qalmoqlar qozoq dashtlariga bostirib kirib qozoqlarni Movarounnahrqa qochishga majbur qilgan. Qozoqlar chorva mollari bilan Zarafshon vodiysiga kirib bog' va ekinzorlarni payhon qilganlar. Buxoro xonligi da iqtisodiy va siyosiy tanglik kuchaya borib xonlik tanazzulga yuz tutgan. Movarounnahr parchalanib, uchta xonlikka (Buxoro, Qo'qon va Xiva) bo'linib ketgan. Bundan foydalangan Eron hukmdori Nodirshox 1740 yil bahorida Balxni egalladi va o'sha yili kuzda katta qo'shin bilan Amudaryodan o'tib Buxoro xonligi ni bo'ysundiradi. U mang'it qabilasidan bo'lgan Muhammad Hakim otaliqni ishonchli vakili sifatida taxtga o'tqazadi.

#### Xulosa

Abdullaxon II hukmronligi davri Buxoro xonligi tarixida siyosiy barqarorlik va markazlashuv jarayonlarining kuchayishi bilan ajralib turadi. Uning faoliyati natijasida davlat boshqaruvi tizimi mustahkamlanib, ichki nizolar bartaraf etildi hamda markaziy hokimiyat nufuzi oshdi. Abdullaxon II olib borgan harbiy yurishlar Buxoro xonligi hududiy yaxlitligini ta'minlashga xizmat qilgan bo'lsa, tashqi siyosatda qo'shni davlatlar bilan olib borilgan munosabatlar xonlikning mintaqadagi siyosiy mavqeini mustahkamladi.

Shuningdek, ushbu davrda savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniy hayot rivojlanib, shaharlar iqtisodiy va ma'naviy markazlarga aylandi. Ilm-fan va me'morchilik sohalaridagi yutuqlar Abdullaxon II hukmronligining muhim jihatlaridan biri bo'lib, Buxoro xonligining tarixiy taraqqiyotida muhim o'rin egalladi. Umuman olganda,

Abdullaxon II faoliyati Buxoro xonligini kuchli va nufuzli davlat sifatida shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sagdullaev, O'. Mavlonov, D. Mahkamova. O'rta Osiyoda O'rta asrlar savdo-sotiq tizimi. – T.: Akademiya. 2012.
2. Buxoro xonligi tarixi : metodik qo'llanma / A. Zamonov. - Toshkent: Bayoz, 2021. - 149 b.
3. Abdullanoma, 1-j., T., 1966; 2-j.,T,1969; Abdullanoma (tuliq nashri), 1-kitob,T.,1999; 2-kitob, T., 2000;
4. Abdullanoma, 1-j., T., 1966; 2-j., T, 1969; Abdullanoma (tuliq nashri), 1-kitob, T., 1999; 2-kitob, T., 2000; Sharafnoma-yi shaxi,
5. Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию ...
6. Мўминов И.М., Самарканд тарихи. – Тошкент: Fan, 1971.
7. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг., гвардейского Генерального Штаба капитана Николая Муравьева, посланного в сии страны» для переговоров. - М.: 1822. Часть 1.- 180 с. Часть II. RESEARCH FOCUS | VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2023 ISSN: 2181-3833 ResearchBip (14) | Google Scholar | SJIF (5.708) | UIF (8.3) Research Focus, Uzbekistan 70 refocus.uz
8. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI - середина XIX в.). – М.: 1958.
9. Исмоил Мирпанжий. Асирликдаги хотиралар (Эрон генерали Исмоил Мирпанжийнинг Хуросон, Марв ва Хивада бошидан кечирган воқеалар баёни) / Форс тилидан Набибулло Ҳасан таржимаси. - Урганч-Хоразм, 1997